

LG CHANGYUTGICHIDAN FOYDALANISH BO'YICHA QISQACHA YO'RIQNOMA XAVFSIZLIK TEXNIKASI BO'YICHA MUHIM KO'RSATMALAR

Changyutgichdan foydalanishdan avval uning yonib ketishi, elektr toki zarbi, shikastlanish va mol-mulkka zarar yetishi xavfining oldini olish uchun barcha ko'rsatmalarni o'qib chiqing va ularga amal qiling. Ushbu qo'llanma foydalanish vaqtida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha holatlarni qamrab ololmaydi. Sizga tushunarsiz bo'lgan savollar bo'yicha doimo xizmat ko'rsatish vakiliga yoki ishlab chiqaruvchiga murojaat qiling.

Ushbu qurilma quyidagi farmoyish talablariga javob beradi: 2006/95/EC; past kuchlanish va 2004/108/EC; elektromagnit moslik haqidagi farmoyish.

DIQQAT!

1. Ushbu qurilma jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan shaxslar va shu bilan birga bolalarning yoki yetarlicha tajriba va bilimga ega bo'lmagan shaxslarning (bunday shaxslarning qurilmadan foydalanishda xavfsizlik uchun javobgar shaxsning nazorat qilishi yoki ularga ushbu qurilmadan foydalanish qoidalarini o'rgatish hollari bundan holi) foydalanishi uchun mo'ljallanmagan.
2. Yosh bolalarni nazorat qiling va ushbu qurilma bilan o'ynashlariga yo'l qo'ymang.
3. Tarmoq shnuri ishdan chiqqan hollarda mavjud xavfning oldini olish maqsadida shnur LG Elektroniks kompaniyasi xizmat ko'rsatish vakili tomonidan amalga oshirilishi lozim.
4. Ushbu qurilmadan mavjud xavfni tushungan holda 8 yoki undan katta yoshdagi bolalar, jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan yoki yetarlicha tajriba va bilimga ega bo'lmagan shaxslar faqatgina nazorat ostida bo'lganlarida yoki qurilmadan xavfsiz tarzda foydalanish qoidalarini tushungan hollardagina foydalanishlari mumkin. Ushbu qurilma bilan o'ynash yosh bolalar uchun man etilgan. Kattalar nazoratsiz ushbu qurilmadan foydalanish yoki tozalash taqiqlangan.

EHTIYOT BO'LING!

- Boshqaruv yoqish/o'chirish tugmasi OFFga qilib sozlanmagan bo'lsa, changyutgichni tarmoqqa ulamang.
- Changyutgichga yosh bolalarni bir o'zlarini yaqinlashtirmang. Shikastlanishning oldini olish uchun elektr shnurini to'siqlarni chetlab o'tgan holda ehtiyotkorlik choralariga rioya qilib o'rang.
- Changyutgichga qarash va uni tozalashdan oldin elektr tarmog'iga ulash shnuri vilkasini rozetkadan chiqaring. Shuningdek, undan foydalanmasangiz, qurilmani tarmoqdan uzing.
- Tamaki yoki yuqori haroratli tamaki qoldig'i/kuli kabi yonayotgan yoki tutayotgan buyumlarni yig'ish uchun changyutgichdan foydalanmang.
- Suyuq yoki gaz holatidagi yoqilg'i, benzol, erituvchilar, propan kabi yonuvchi yoki portlovchi moddalarni yi'g'ish uchun changyutgichdan foydalanmang.
- Nam qo'llar bilan shnur vilkasiga va changyutgichning o'ziga tegib ketmang.
- Vilkanini rozetkadan sug'urish uchun shnurdan tortmang.
- Ehtiyotkorlik choralariga amal qiling. Sochlar, bo'sh turadigan kiyim, barmoqlar va boshqa tana a'zolari qurilmaning harakatlanuvchi qismlari orasiga yoki tirqishlari orasiga kirib ketishiga yo'l qo'ymang.
- Changyutgichni olib o'tish uchun changyutgich shnuridan tortmang. Eshik yopilganida elektr shnurining qisilib qolishiga, o'tkir qirralar yoki burchaklarga tegib ketishiga yo'l qo'ymang. Pol ustidagi shnur ustida changyutgichni harakatlantirmang. Elektr shnurini yuqori haroratli yuzalardan uzoqroqda saqlang.
- Shlangda elektr simlari mavjud. Simlarda teshilgan yoki kesilgan joylar aniqlanganda, ulardan foydalanishni to'xtating.
- Changyutgich o'yinchoq emasligini doimo yodda tuting. Yosh bolalar yonida foydalanishda ehtiyotkorlik choralarini ko'ring; agar ular qurilmadan foydalansalar, ularni diqqat bilan kuzating va nazorat qiling.
- Quvvat manbaiga ulanadigan shnur yoki vilka buzilgan yoki nosoz hollarda shnurni changyutgichdan foydalanmang.
- Changyutgichga suv kirib ketgan hollarda undan foydalanmang.
- Qandaydir qismlar yo'qligi aniqlansa yoki ular nosoz holda bo'lsa, changyutgichdan foydalanishni to'xtating.
- Ushbu changyutgichdan foydalanishda uzaytirma shnurini ishlatmang.
- Tarmoqdagi kuchlanish changyutgich doimiy kuchlanishiga mos kelishi kerak.
- Rozetkadan vilkanini sug'urishdan avval barcha boshqaruv tarkibiy qismlarini o'chiring.
- Vilkanini o'zgartirish qat'iyan man etiladi.
- Elektr qurilmalari ta'miri malakali texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash muhandislari tomonidan amalga oshirilishi lozim.
- Changyutgich tirqishlariga hech qanday buyumlarni joylashtirmang.
- Tirqishlarning to'silib qolishiga yo'l qo'ymang: havo oqimini kamaytirishga olib keluvchi chang, tuk va soch kabilardan muntazam ravishda tozalab boring.
- Changto'plagich va/yoki filtrsiz changyutgichdan foydalanmang.
- Gilam qoplangan yuzalarni tozalashda qo'llaniladigan vositalar yoki xushbo'y hid taratuvchilar, tozalovchi kukun va mayda changlarni changyutgichda tozalagandan so'ng, albatta, changto'plagichni bo'shating.
- Mayda o'yinchoq, tugmacha mix, kanselyariya qisqichlari kabi o'tkir va qattiq buyumlardan tozalash uchun changyutgichdan foydalanmang.
- Changyutgichni yopiq bino ichida saqlang.
- Changyutgich yosh bolalar yoki jismoniy qobiliyati cheklangan shaxslarning nazoratsiz foydalanishi uchun mo'ljallanmagan.
- Faqat LG Elektroniks tomonidan ishlab chiqarilgan yoki kompaniya xizmat ko'rsatish vakillari tomonidan tavsiya qilingan ehtiyot qismlardan foydalaning.
- Ushbu qo'llanmada keltirilgan qurilmani boshqarish qoidalariga rioya qiling. LG tomonidan ruxsat etilgan yoki tavsiya qilingan moslama va qo'shimcha qurilmalardan foydalaning.
- Zinapoyalarni tozalashda shikastlanish va changyutgich ag'darilib ketishi xavfining oldini olish uchun uni doimo zinapoya asosida qoldiring.
- Qo'shimcha nasadkalardan "MIN" rejimida foydalaning.
- Changyutgichni olib o'tishda changto'plagich dastasidan ushlamang.
- Changyutgich changto'plagichi bo'shatilganidan so'ng ko'rsatkich qizil rangda bo'lib yonsa, changto'plagichni tozalang.
- Chiqaruvchi va motor himoya filtri to'liq quriganiga ishonch hosil qilgach, changyutgichga joylashtiring.
- Filtrlarni quritish pechida yoki mikroto'lqinli pechda quritmang.
- Filtrlarni kiyim quritish qurilmasida quritmang.
- Ochiq olov manbasi yaqinida quritishni amalga oshirmang.

- Quvvat manbaiga ulanadigan shnur ishdan chiqqanida mavjud xavfning oldini olish maqsadida shnur LG Elektroniks xizmat ko'rsatish mas'ul hodimi tomonidan almashtirilishi lozim.
- Ushbu qurilma jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan shaxslar va shu bilan birga bolalarning yoki yetarlicha tajriba va bilimga ega bo'lmagan shaxslarning foydalanishi uchun mo'ljallanmagan. Ular changyutgichdan kimningdir nazorati ostida yoki ularning xavfsizligiga mas'ul shaxs tomonidan qurilmadan foydalanish qoidalari bo'yicha ko'rsatma olganliklaridan so'ngina foydalanishlari mumkin.

CHANGYUTGICH ISHLAMASA, NIMA QILISH KERAK?

Tortish kuchi kamaysa, nima qilish kerak

1. Changyutgichni o'chiring va uni tarmoqdan uzing.
2. Teleskopik trubka, egiluvchan shlang va tozalash moslamasi tiqilib qolmaganligini tekshiring.
3. Changto'plagich to'lib qolmaganligini tekshiring. Zarurat bo'lsa, uni bo'shating.
4. Chiqarish filtri ifloslanmaganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, uni tozalang.
5. Havo filtri va motor himoya filtri ifloslanmaganligini tekshiring. Zarurat bo'lsa, ularni tozalang.
6. Changyutgich ichini tekshiring. Zarurat bo'lsa, uning ichki qismini tozalang.

Eski changyutgichlardan xalos bo'lish

1. Qurilmadagi X shaklida chizilgan g'ildirakli axlat chelagi aks etgan belgi 2002/96/EC farmoyishiga asosan mahsulotga taalluqli.
2. Barcha elektron va elektr qurilmalari maishiy axlat bilan emas balki hukumat yoki tegishli hokimiyat organlari tomonidan belgilangan maxsus joylarga tashlanishi lozim.
3. Eski changyutgichdan tegishli tartibda xalos bo'lish uning atrof –muhitga va inson salomatiga salbiy ta'sirining oldini oladi.
4. Eski jihozni qayerga tashlash tartiblari bo'yicha to'liq ma'lumot olish uchun shahar ma'muriyatiga, eski jihozlarni qayta ishlash bo'yicha xizmat bo'limiga yoki mahsulot xarid qilingan do'konga murojaat qiling.

KAFOLAT SHARTLARI

Xizmat muddati: 7 yil

Kafolat muddati: 1 yil

Bepul xizmat ko'rsatish: 3 yil

“Hom bot” rusumi uchun:

Changyutgich korpusi: 2yil

Akkumulyator: 1 yil

Profilaktika ishlarini o'tkazish va jihozdan keyinchalik foydalanishda kerakli maslahatlarni olish uchun mahsulot xizmat muddati tugashiga yaqin Vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Xizmat muddati davomida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olish uchun xarid paytida taqdim qilinadigan mahsulotga biriktirilgan mahsulot cheki, foydalanish bo'yicha yo'riqnoma/qo'llanma, kafolat taloni kabi barcha hujjatlarni saqlab qo'ying.

2002 yilning 1 fevralidan boshlab xarid qilingan mahsulotlar uchun xizmat ko'rsatish bepul amalga oshiriladi. Ushbu xizmat Rossiya, Belorussiya, Ukraina, Baltiya davlatlari va Markaziy Osiyo davlatlari hududidagi faqatgina Rasmiy xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Bepul xizmat ko'rsatish o'z ichiga bepul ta'mirlash va zarur ehtiyot qismlarning almashtirilishini oladi.

Bepul xizmat ko'rsatish muddati mahsulot iste'molchiga yetkazib berilgan kundan boshlanadi.

Bepul xizmat ko'rsatish quyidagilar uchun amalga oshirilmaydi:

- Masofadan boshqarish pultlari, akkumulyator batareyalari, elektr ta'minoti tarkibiy qismlari, elektr ta'minoti tashqi bloklari va mahsulot barcha turlari uchun zaryadlovchi qurilmalar
- G'ilof, tasma, sumka, jihozga biriktirigan hujjatlar
- Shlanglar, trubkalar, nasadkalar, changto'plagichlar, changyutgich filtrlari.

Kafolat taloni yo'qotilgan hollarda bepul xizmat ko'rsatish amalga oshirilmaydi.

LG Elektroniks foydalanuvchi tomonidan jihozdan foydalanishda yuzaga kelgan maxfiy va shaxsiy ma'lumotning yo'qolishi uchun javob bermaydi.

Batareykalarni, filtrni, sovutgich ichki kameralari yoritgichlarini almashtirish va jihozni tozalash kabi vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan xizmat turlari Rasmiy Xizmat Ko'rsatish Markazlarida qo'shimcha haq evaziga iste'molchi xohishiga ko'ra amalga oshiriladi.

Quyidagilar oqibatida yuzaga kelgan mahsulotdagi nosozliklarni bartaraf qilish bepul xizmat ko'rsatish orqali amalga oshirilmaydi va kafolat o'z kuchini yo'qotadi:

1. Iste'molchi tomonidan jihozdan noto'g'ri foydalanish, saqlash va uni transport vositasiga noto'g'ri yuklashda
2. Uchinchi shaxs harakatlari:
 - Vakolatsiz shaxslar tomonidan ishlab chiqaruvchi tavsiya etmagan tuzilishga oid yoki sxemali texnik o'zgartirishlar kiritish yoki ta'mirlashda
 - Elektr toki bilan ta'minlash tizimi, telekommunikatsiya va kabel tarmoqlariga oid texnikaviy davlat standartlari va normalariga rioya qilmaslikda
 - Jihozni noto'g'ri o'rnatish va yoqishda
3. Jihoz tabiiy ofat, yong'in va yashin kabi qarshilik ko'rsatib bo'lmaydigan kuchlar ta'siri ostida qolganida
4. Kompyuter viruslari kabi zarar yetkazuvchi dasturlardan foydalanilgandagi ta'sirda
5. Foydalanuvchi va vakolatsiz shaxslar tomonidan kompyuter tizimlari uchun BIOS, dastur ta'minoti kabilarni noto'g'ri yangilash oqibatida nosozliklar yuzaga kelganda
6. Tadbirkorlik faoliyati maqsadida foydalanilganda

Mahsulot sifati, uni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha shikoyat yoki takliflar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi:

AJ “LG Elektroniks Olma-ota Qozog'iston”, Qozog'iston Respublikasi, Olma-ota shahri 050061, Molodyojnaya ko'chasi, 2A. Boshqa xizmat ko'rsatish markazlari bo'yicha ma'lumotni Iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash xizmat bo'limiga 8-800-120-22-22 telefon qilish orqali olishingiz mumkin.



MFL68043501